

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK – XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHI

Yuldashev S.I.

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Informatika kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11281779>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi va ayollar bandligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Bundan tashqari, ayollar bandligini ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: biznes, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aholi daromadlari, bandlik, ayollar bandligi, biznes g'oya, "Ayollar daftari", moliyaviy mablag'lar, soliq, soliq imtiyozlari.

Аннотация: В данной научной статье анализируется роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике страны и занятости женщин. Кроме того, были проанализированы вопросы трудоустройства женщин, повышения их социально-экономической активности.

Ключевые слова: бизнес, малый бизнес, частное предпринимательство, доход, занятость, женская занятость, бизнес-идея, «Женская книга», финансовые ресурсы, налоги, налоговые льготы.

Annotation: This scientific article analyzes the role of small business and private entrepreneurship in the country's economy and employment of women. In addition, the issues of women's employment, increasing their socio-economic activity were analyzed.

Key words: business, small business, private entrepreneurship, income, employment, women's employment, business idea, "Women's Book", financial resources, taxes, tax benefits.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortmoqda. Xususan, 2023-yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 48,8% ni tashkil qildi (2022 yilning yanvar- martida 46,8%).

Hududlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining istiqbolda o'sib boorish dinamikasini korxonalar miqdorining o'sib borish holati bo'yicha tahlil qilsak, bu holat qo'shimcha yangi kichik korxonalarining tashkil etilishi hisobiga amalga oshadi. Kichik biznes sohasi rivojlanishining ahamiyati iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar

uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlabchiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, ularning turmush darajasi sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barchashakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

2023 yilning yanvar-iyunida 1,3 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8 foizga kam demakdir.²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi "Tadbirkorlik sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5409-sonli Farmoniga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga keng imkoniyatlaryaratilib berilmoqda.

2023-yil yanvar-iyun oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 56,7% ni tashkil etdi.³

Aholimizning 49,7 foizini xotin-qizlar tashkil etishini hisobga olsak, yurtimizdagi ijtimoiy maslalarining aksariyati ular hayoti bilan chambarchas bog'liq.

So'nggi yillarda ayollarni ijtimoiy himoyalash, bandligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilib, bu borada mahalla darajasigacha yuritiladigan vertikal tizim yaratildi. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 8-oktabrdagi jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi tashabbusi bilan xotin-qizlar masalalari bo'yichayangi ish tizimi – har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida "Ayollar daftari" joriy etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qaroriga binoan mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda "Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi tashkil etildi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish;

- xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ishtopishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;
- hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy- ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;
- turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;
- xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish, ilg'or tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- xotin-qizlarning oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirishcholarini ko'rish;
- hududiy xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, mahallalardagi "Ayollar maslahat kengashlari" faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash, ularga uslubiy-amaliy ko'maklashish;
- "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar, sektorlartomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida qayd etilgan siyosiy va huquqiy hujjatlarda ayollarning mavqeini ko'tarish orqali oilani mustahkamlash, qollab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish va ularning jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, moddiy va ma'naviy sohalarida faolliklarini yanada oshirish masalalarini hal etish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimiz mehnat potensialining asosiy qismini ayollar tashkil etishini hisobga olsak, ularning ish bilan bandligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Xotin-qizlarni bandligini ta'minlashda ular uchun qulay sharoitlarda yangi ish o'rinlari joriy etishni nazarda tutadi. Bunda hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, xotin-qizlarning talab va istaklari inobatga olinib mavjud korxonalarda bo'sh va zahiralangan ish o'rinlariga joylashtirish, jamoat ishlariga jalb etish va subsidiyalar ajratish orqali o'z-o'zini band etish ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari ularga imtiyozli kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam berish orqali yangi kichik biznes sub'yektlari faoliyatini yo'lga qo'yish mexanizmlariga urg'u berilmoqda.

Ayollar bandligini ta'minlashda ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, biznes borasidagi bilimlarini mustahkamlash, yangi biznes g'oyalarni mukammal ishlab chiqish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublikamiz bo'ylab "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb- hunarga o'qitish markazlari, mahallalar qoshida esa o'quv maskanlari tashkil etildi.

Bu tizimning asosiy maqsadi xotin-qizlarga faqat moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish emas, balki ularni ishga joylashtirish, biznesini yo'lga qo'yish orqali doimiy daromad manbai bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishdan iborat.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ayollarga mavjud holatni o'zgartirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda. O'ziga ishonishning, mustaqillikning va atrofda gilarining tan olishlariga erishishning yo'llaridan biri biznesdir. Ayollar biznesini rivojlantirish, ayollarni biznes sohasiga integratsiyalash mexanizmini yo'lga qo'yish – bandlikka ko'maklashish bo'yicha ijtimoiy siyosatning istiqbolli yo'nalishlaridir.

Iqtisodiy nobarqarorlik ayollar tadbirkorligining yanada yuksalishini muqarrar qilib qo'yadi. Aynan ayollar, intuitsiyaga, muammolashni hal etishga emotsional yondashishiga tayanib noaniqlik vaziyatlarida firmalarni boshqarish tajribasini tez egallaydilar. Ayol tadbirkorlarning ko'pchiligi biznesga ularni mas'uliyatni zimmasiga olishga majbur etuvchi moddiy va ijtimoiy holatlar harakatga solishi tufayli kirib keladilar.

Hozirgi vaqtda ayollar tadbirkorligini xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida ko'proq uchratishimiz mumkin. Ayollar tadbirkorligi rivojlanishini ta'minlashda ularga moliyaviy va huquqiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi xotin-qizlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, soliq imtiyozlari berish va huquqiy jihatdan himoyalash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda ayollar bandligini ta'minlashda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni o'rni alohida. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yangi ish joylari tashkil etilishiga, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishga, yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga, import qilinayotgan mahsulotlar salmog'ini kamayishiga, eksportbop tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ichki bozorni tovarlar bilan to'ldirishga, xizmatlar sifatini oshirishga hamda respublikamizda erkin raqobat muhitining rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Адабиётлар руйхати

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qarori. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2021-y., 07/21/5020/0191-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-sonli Farmoni. Tadbirkorlik sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib- tamoyillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2018-y., 06/18/5409/1059-son
3. O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturiga oid hujjatlar.
4. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
5. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.